

RAQAMLI TA'LIM: UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

A.P.Xujamkulov -TDPU, o'qituvchi
R.Q.Iskandarova - TDPU, talaba

Annotatsiya. Mazkur maqolada, raqamli ta'limga zamonaviy dunyoda o'quv jarayonini qanday o'zgartirgani, uning afzalliklari va qiyinchiliklari haqida fikr yuritiladi. Raqamli texnologiyalarning o'qitish va o'rganish jarayonidagi roli, zamonaviy o'quv uslublarining rivojlanishiga ta'siri va digitalizatsiyaga oid ijobiy hamda salbiy tomonlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'limga zamonaviy o'qitish usullari, texnologiya integratsiyasi, onlayn o'qish.

Аннотация. В данной статье рассматривается, как цифровое образование изменило процесс обучения в современном мире, его преимущества и проблемы. Рассмотрены роль цифровых технологий в процессе преподавания и обучения, влияние на развитие современных методов обучения, а также положительные и отрицательные стороны цифровизации.

Ключевые слова: цифровое образование, современные методы обучения, интеграция технологий, онлайн обучение.

Annotation. This article discusses how digital education has changed the learning process in the modern world, its benefits and challenges. The role of digital technologies in the teaching and learning process, the impact on the development of modern teaching methods and the positive and negative aspects of digitalization are considered.

Key words: digital education, modern learning methods, technology integration, online learning.

"Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish to'g'risida 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6079-sonli Farmoni asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va barcha sohalarda, xususan davlat boshqaruvi, ta'limga sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Elektron hukumat tizimini rivojlantirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari bozorini kengaytirish, respublika bo'ylab IT-parklarni tashkil qilish va malakali kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan 220 dan ortiq ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda raqamli ta'limga keng qo'llanilib, an'anaviy usullardan tubdan farq qiluvchi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ta'limga jarayoniga yangi texnologiyalarni

tatbiq etish natijasida o‘quv jarayoni yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan shaklga ega bo‘lmoqda. Soha va ta’limning turli bosqichlariga sun’iy intellektning kiritilishi, jarayonlarning raqamlashtirilishi va mobillashuvi bilan bog‘liq muhim bir davr kechmoqda. Dunyo yalpi ichki mahsulotining qariyb chorak qismi raqamli ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga to‘g‘ri kelishi prognoz qilinmoqda. Ta’lim sohasini raqamlashtirish esa katta hajmdagi ma’lumotlar uchun elektron bazalar yaratish, ularni qayta ishlash va almashish texnologiyalarini kiritish orqali ta’lim tizimida, xususan, oliy ta’lim va boshqaruv jarayonlari hamda kundalik ijtimoiy jarayonlarda o‘zgarishlar kiritishni anglatadi. Ta’limni rivojlanishini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat: texnologiyadagi o‘zgarishlar; globallashuv jarayoni; ta’limning yangi mazmuni; o‘qitishning yangi shakllari, texnologiyalari va vositalari; yangi tarmoq yechimlari va ta’lim sifatini boshqarishning yangi ko‘rinishlari. Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli ta’limni joriy etish qator ijobiy sifatlarni namoyon qilmoqda. Jumladan:

-moslashuvchanlik - raqamli ta’limning eng katta afzalliklaridan biri ta’limni har qanday joyda va vaqtda olib borish imkonini yaratishidir. Bu esa o‘quvchilarga qulay vaqt va joyda bilim olishga yo‘l ochadi;

- shaxsiylashtirilgan o‘qish - raqamli platformalar ta’lim jarayonini o‘quvchilarining individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi, bu esa o‘qish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

- axborot va resurslarning boyligi - internet orqali keng qamrovli ma’lumot va resurslarga erishish imkoniyati yaratilgan, bu esa o‘quvchilar uchun bilim manbalarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, raqamli ta’limni joriy etish bir qator qiyinchiliklarga ham duch kelmoqda:

- texnik cheklar, har bir o‘quvchi internet yoki raqamli qurilmalar bilan ta’milanmaganligi sababli ta’lim olishda notenglik yuzaga kelishi mumkin;

- diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklar, raqamli platformalarda ta’lim olish o‘quvchilar diqqatini to‘plashni qiyinlashtiradi, chunki boshqa tashqi omillar diqqatni osonlik bilan chalg‘itishi mumkin;

- pedagogik qiyinchiliklar, raqamli ta’lim samaradorligini ta’minlash uchun o‘qituvchilar texnik bilim va tajribaga ega bo‘lishlari zarur.

Ta’lim jarayonida ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro teskari aloqalar mavjud bo‘lsa, bu jarayon samaraliroq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, an’anaviy ta’lim bilan birga onlayn bakalavr va magistrlik dasturlarini taklif etish ta’lim jarayonini to‘liq amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda raqamli shaklda yuqori sifatli ta’lim olish imkoniyatlari mavjud. Masalan, nufuzli xorijiy universitetlarda olib borilayotgan ma’ruzalarni internet orqali tinglash mumkin. Ammo bevosita auditoriyada bo‘lish, bilimni bevosita muhokama va sinovdan o‘tkazish, shuningdek,

turli fikrlarni almashish orqali chuqur o'rganish imkoniyatini beruvchi aralash ta'lismuhim omil sanaladi. Raqamli ta'lism shaklida o'qitish va o'rganish qiyinroq bo'lgani uchun barcha ta'limga yo'nalishlarini bu formatga o'tkazish har doim maqbul deb hisoblanmaydi.

Bu tadqiqotlar raqamli ta'limga individualizatsiya, interaktivlik, global erkinlik kabi ko'plab afzalliklarini namoyish etgan bo'lsa, texnik muammolar, kursni tamomlashda motivatsiya yetishmasligi, pedagogik nazoratning murakkabligi kabi qiyinchiliklarini ham ko'rsatib beradi.

Raqamli ta'limga bugungi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari ortib borayotgani, ta'limga jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Onlayn va raqamli ta'limga modellarining keng qo'llanilishi o'quv jarayonlarini osonlashtiradi, shaxsiylashtirilgan ta'limga imkoniyatlarini yaratadi va o'qituvchilarga zamонавиy pedagogik usullarni tatbiq etish imkoniyatini beradi. Shuningdek, masofaviy va moslashuvchan ta'limga tizimi talabalarni mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, raqamli ta'limga o'ziga xos qiyinchiliklarga ham ega: texnik qiyinchiliklar, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi, diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklar, nazorat imkoniyatlarining chegaralanganligi kabi muammolar raqamli ta'limga samaradorligini ta'minlashda o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunday qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun raqamli texnologiyalarni joriy qilishda har bir ta'limga bosqichiga moslashgan usullarni ishlab chiqish, ilg'or texnologiyalar bilan birga an'anaviy o'qitish usullarini ham uyg'unlashtirish zarur. Shu yo'sinda, ta'limga ishtiroychilarining o'zaro samarali aloqasi va bilim olish jarayonining to'liqligi ta'minlanishi mumkin. Raqamli ta'limga to'liq foydalanish va uning imkoniyatlarini yanada kengaytirish raqamli savodxonlikni rivojlantirish, yangi texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rgatish va ta'limga tizimlarini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonov A.A., Omanov U.A., Rasulov U.M. Ta'limga jarayonida integratsiyalashgan metodlardan samarali foydalanish. Internauka: elektron. nauchn. jurnal. 2021. № 22(198). s. 82-85.
2. Ходжаева Д.Ф., Омонов А.А., Тугизбоев Ф.У. Проблемы, с которыми можно столкнуться при внедрении искусственного интеллекта. Научно-методический журнал "Наука, техника и образование". № 5 (80), с. 23-26.
3. Рыбина Г.В. Интеллектуальные обучающие системы на основе интегрированных экспертных систем: опыт разработки и использования // Информационно-измерительные и управляющие системы. 2011. №10. С. 4-16